

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'QUVCHILARINING XALQ O'YINLARIGA QADRIYATLI MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISH (TARBIYA DARSLARI MISOLIDA)

**Hayitov Abrorbek**

JDPU Pedagogika va psixologiya

fakulteti 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada globallashuv sharoitida an'anaviy xalq o'yinlarining ahamiyati, o'quvchilar orasida ularga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish yo'llari, tarbiya darslarida xalq o'yinlaridan foydalanish, hamda bu jarayonning samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, xalq o'yinlari, milliy qadriyatlar, tarbiya darslari, madaniy meros.

### KIRISH

Globallashuv jarayonlari milliy madaniyatlar va qadriyatlar tizimiga kuchli ta'sir ko'rsatayotgan hozirgi davrda, yoshlarning milliy qadriyatlarga, jumladan xalq o'yinlariga munosabati dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ham yoshlarda milliy-madaniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yosh avlod ongiga singdirish masalasi tobora dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Zamon talablariga javob beradigan raqamli texnologiyalar, ommaviy madaniyat ta'sirining kuchayishi natijasida yoshlar orasida an'anaviy madaniyat namunalariga, jumladan, xalq o'yinlariga qiziqish susayib bormoqda. Bu esa milliy o'zlikni anglash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xalq o‘yinlari har bir millatning ko‘p asrlik tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, tarbiya an’analarini o‘zida mujassam etgan madaniy meros hisoblanadi. O‘zbek xalq o‘yinlari bolalarning nafaqat jismoniy, balki intellektual, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Biroq, zamonaviy dunyoda gadjetlar, kompyuter o‘yinlari, ijtimoiy tarmoqlar kabi omillar ta’sirida xalq o‘yinlari amaliyotdan siqib chiqarilmoqda. Bu holat 5-6 sinf o‘quvchilari orasida, ya’ni shaxs sifatida shakllanish davri boshlanayotgan yoshda alohida ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida tarbiya fanining joriy etilishi, milliy qadriyatlarni o‘qitishga e’tiborning kuchayishida muhim qadam bo‘ldi. Mamlakatimizda 2021-2022 yillarda joriy etilgan tarbiya darsliklari o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish, milliy qadriyatlarni e’zozlash ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonida xalq o‘yinlaridan foydalanish orqali biz o‘quvchilarda nafaqat jismoniy, balki intellektual, axloqiy, estetik va ijtimoiy sifatlarni ham shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqar xalq o‘yinlari orqali bolalarda jamoaviylik, mas’uliyat, mardlik, sabr-toqat, halollik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlar shakllanadi. Milliy o‘yinlar vositasida bolalarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘usi, ajdodlar merosiga hurmat hissi rivojlanadi. Xalq o‘yinlarining yana bir muhim jihati shundaki, ular bolalarni tabiat bilan uyg‘unlikda yashashga, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga ham o‘rgatadi.

### **ASOSIY QISM**

Xalq o‘yinlari – bu avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan, ma’lum qoidalar asosida tashkil etiladigan va belgilangan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan faoliyat turi bo‘lib, bu milliy madaniyat va ma’naviyat, pedagogik–psixologik, ijtimoiy va jismoniy taraqqiyotning shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bolalarni jamoatchilik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda xalq o‘yinlarining o‘rni beqiyosdir. Yoshlikdan mehnatga muhabbat uyg‘otish, sabrli-chidamli, boshlagan ishni oxiriga yetkazadigan

qilib tarbiyalash bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiyaning barcha bosqichlarida bolalarning sevimli o'yinlaridan foydalanish yoshlarda, turli qobiliyatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xalq o'yinlari qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

**“Oq terakmi–ko‘k terak”** – bu o'yin bolalarda chaqqonlikni, tezlik va kuchni rivojlantiradi. Jamoaviy bo'lgani uchun o'zaro hamkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini va diqqatni shakllantiradi.

**“Besh tosh”** – bu intellektual va chaqqonlikni talab qiladigan o'yin bo'lib, o'yin davomida ishtirokchilar bir vaqtning o'zida toshni havoga otish, yerdan boshqa toshlarni olish va tushayotgan toshni ham olishi kerak. Bu o'quvchilarda diqqatni jamlash, ko'z va qo'l harakatlarini muvofiqlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**“Chillik”** – o'yin davomida bolalar chillakni (kichkina tayoqcha) kattaroq tayoq bilan urib, uzoqqa otishi kerak bo'ladi. Bu o'yin bolalarda strategik fikrlashni, chaqqonlik, tezkorlik, mo'ljalga olish, guruh va jamoada do'stona munosabatlarni shakllantiradi.

**“Arqon tortish”** – bu o'yin yoshlarda kuch va chidamlilikni oshiradi. Hamjihatlik, hamkorlik, sog'lom raqobat, hamma bir vaqtda bir yo'nalishda harakat qilishi jamoaviy muhitni, jamoaviy ruh, kuch va bardoshni rivojlantiradi.

**“So'z o'yini”** – bu o'yin nafaqat yoshlar uchun balki kattalar uchun ham foydali va qiziqarli mashg'ulot hisoblanadi. So'z o'yini nutq ko'nikmalarini shakllantirishga, mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashni, so'zlarni eslab qolishni, imlo va grammatik ko'nikmalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega o'yin hisoblanadi.

**“Durra”** – o'yinda ishtirokchilardan faol jismoniy harakatlar talab etiladi. Bu o'yin yoshlarda tezkor fikrlashni, topqir bo'lish qobiliyatlarini rivojlantiradi shuningdek o'yin ishtirokchilarining harakatlarini kuzatib turish orqali ularda strategik fikrlash g'oyalarini shakllantiradi.

**“Quvlashmachoq”** – bolalarning rivojlanishi uchun muhim o'yin bo'lib, jismoniy faollikni rag'batlantirishi, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishi va ko'ngilochar vaqt o'tkazishda muhim hisoblanadi.

“**Bekinmachoq**” – an’anaviy o‘yinlardan biri bo‘lib yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga, aqliy rivojlanish, mantiqiy fikrlash va o‘zaro hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Albatta, xalq o‘yinlari turli xalqlarning madaniyati, tarixi va hayot tarzini aks ettiruvchi qadriyatlar hisoblanadi. O‘zbek xalq o‘yinlari madaniy merosimizning ajralmas qismi hisoblanib asrlar davomida shakllanib kelgan. Milliy o‘yinlar vositasida bolalarda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘usi, ajdodlar merosiga hurmat hissi rivojlanadi. Xalq o‘yinlarining yana bir muhim jihati shundaki, ular bolalarni tabiat bilan uyg‘unlikda yashashga, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga ham o‘rgatadi. Xalq o‘yinlari nafaqat ko‘ngilochar, balki jismoniy, aqliy rivojlanishga xizmat qiluvchi o‘yinlardir. Shuningdek, xalqimizning milliy an‘analari va qadriyatlari aks etgan bo‘lib, ularni yosh avlodga yetkazishda xalq o‘yinlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xalq o‘yinlari yoshlarda quyidagi sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi:

- jamoa bo‘lib harakat qilish ko‘nikmasi;
- mas’uliyatni his qilish;
- o‘zaro hurmat va hamkorlik;
- milliy o‘zlikni anglash;
- jismoniy rivojlanish;
- intellektual qobiliyatlarni o‘stirish.

Xalq o‘yinlarining yana bir muhim jihati shundaki, ular avloddan-avlodga o‘tib, bugungi kunda xalq pedagogikasining ham ajralmas qismi hisoblanadi. Ular orqali milliy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va madaniy an‘analar avloddan-avlodga o‘tib, millatning madaniy merosini saqlab qolish va uni davom ettirishga yordam beradi. Pedagogik nuqtai nazardan olib qaraganda xalq o‘yinlari o‘quvchilarning quyidagi rivojlanish yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatadi:

**Jismoniy rivojlanish.** Xalq o‘yinlari bolalarning jismoniy faolligini oshiradi, koordinatsiyani yaxshilaydi, chaqqonlik, chidamlilik, epchillik kabi sifatlarni rivojlantiradi. Masalan, “Oq terakmi ko‘k terak”, “Durra”, “Quvlashmachoq” kabi

o‘yinlar yoshlarda tezlik va chaqqonlikni sakllantirsa, “Kurash”, “Arqon tortish” kabi o‘yinlar kuch va chidamlikni rivojlantiradi.

**Intellectual rivojlanish.** Ko‘plab xalq o‘yinlari mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashish, strategik rejalashtirish kabi intellektual qobiliyatlarni talab qiladi. O‘zbek xalq o‘yinlaridan “Beshtosh”, “Oshiq”, “So‘z o‘yini” kabilar o‘quvchilarda diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash, shuningdek, tez qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

**Ijtimoiy rivojlanish.** Xalq o‘yinlari jamoa bo‘lib harakat qilish, qoidalarga rioya qilish, g‘alaba va mag‘lubiyatni to‘g‘ri qabul qilish, hamkorlik qilish kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

**Ma‘naviy-axloqiy rivojlanish.** Xalq o‘yinlarida milliy qadriyatlar, axloqiy me‘yorlar, urf-odatlar o‘z aksini topgan. “Oq terakmi-ko‘k terak”, “Arqon tortish”, “Chillak” kabi o‘yinlarda adolat, halollik, mardlik, jasorat kabi axloqiy tushunchalar o‘z ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytganda, xalq o‘yinlari globallashtirish sharoitida milliy o‘zlikni saqlash, o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va avloddan-avlodga yetkazishning muhim vositasi sifatida e‘tirof etiladi. Tarbiya darslarida xalq o‘yinlaridan tizimli, maqsadli va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida foydalanish o‘quvchilarining xalq o‘yinlariga qadriyatli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda globallashtirish jarayonida milliy o‘zlikni saqlash va uni yangi avlodga yetkazish masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda milliy o‘zlikni saqlash har bir xalq uchun eng muhim vazifalardan biridir. Xalq o‘yinlari esa bu borada eng samarali vositalardan hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib yoshlarda milliy xalq o‘yinlarini singdirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O‘quvchilarning xalq o‘yinlariga qiziqishini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

2. 2.Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda xalq o‘yinlarini zamonaviylashtirishga harakat qilish (masalan, xalq o‘yinlari haqida videoroliklar, animatsiyalar, mobil ilovalar yaratish);
3. Ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash, oilada xalq o‘yinlarini targ‘ib qilish;
4. Maktablarda xalq o‘yinlari festivallari, tanlovlar o‘tkazish;
5. O‘qituvchilar uchun xalq o‘yinlaridan tarbiya jarayonida foydalanish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish.
6. Maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida xalq o‘yinlari to‘garaklarini tashkil etish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Qodirov. A. “O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari”. Toshkent Fan 2009.
3. Usmonxo‘jayev T.S, Meliyev X. “Milliy harakatli o‘yinlar” 2000.
4. Axmedov F.Q. Milliy an‘analar asosida sport bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish usullari. Jizzax-2005.
5. Normurodov A.N. “O‘zbek milliy o‘yinlari” T. 1999.
6. Usmonxo‘jayev T.S, Xo‘jayev F. “1001 o‘yin” 1990.